

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO BAXOLASH DASTURLARINING O'RNI

Muhammadiyeva Gavhar

*Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tuman MMTBga
qarashli 14-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish jarayonida xalqaro baholash dasturlarining tutgan o'rni yoritilgan. Xususan, ushbu dasturlarning o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi metodik asoslari, shuningdek, ta'lim amaliyotida amalga oshirilishi lozim bo'lgan faoliyat yo'nalishlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada tafakkur tushunchasi va uning asosiy shakllari bo'yicha qisqacha ilmiy izohlar berilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, tafakkur shakllari, tushuncha, PIRLS baholash dasturi, didaktik o'yinlar, umumlashtirish, taqqoslash, mavhumlashtirish, aniqlashtirish, fikrlash jarayoni, mantiqiy tafakkur, mantiqiy masalalar.

Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *“Matematika barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Ushbu fan bo'yicha puxta bilimga ega bo'lgan yoshlar zukko, keng dunyoqarashli bo'lib yetishadi va har qanday sohada o'z o'rnini topa oladi.”* Haqiqatdan ham, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shadi. Ayni yo'nalishda, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning o'qish savodxonligini aniqlash va baholash borasida xalqaro miqyosda o'tkaziladigan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Ta'lim inspeksiyasi qoshidagi “Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi” tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanmada PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqoti va uning o'ziga xos tomonlari, baholash mezonlari hamda test materiallari haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etilgan.

PIRLS tadqiqotida foydalanilgan matn va savollarga doir namunaviy topshiriqlar, ularning baholash mezonlari bilan birga metodik ko'rsatmalar keltirilgan. Shuningdek, 4-sinf o'quvchilari uchun tayyorlangan mashq daftarlari bu tadqiqotga tayyorgarlikda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ish daftarlari o'quvchilarning o'qish, tushunish, tahlil qilish, talqin etish va fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida ishlab chiqilgan. Mantiqiy tafakkur esa, o'z navbatida, umumiy fikrlash jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ayniqsa matematik tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchilarni murakkab va noodatiy topshiriqlarni bajara olishga o'rgatish ularning arifmetik,

fazoviy-geometrik va mantiqiy tafakkurini har tomonlama rivojlantirishni talab qiladi. Shuningdek, bolalarni o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishga yo'naltirish, ularga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratish — muvaffaqiyatli ta'lim kalitidir. O'quvchilarning turli musobaqa va tadbirlarda faol ishtiroki, dars jarayonida ularning ichki salohiyati va qiziqishini uyg'otish orqali ularni rag'batlantirish – har bir pedagogning ustuvor vazifasi bo'lishi zarur.

Ijodiy masalalarni yechishda qat'iy bir usul yo'qligi — ularni o'ziga xos yondashuvlar bilan hal etishni talab etadi. Bunday topshiriqlar ustida ishlaganda ham, tipik mashqlarni o'rgatishdagi pedagogik tamoyillarni hisobga olish zarur. Avvalo, o'quvchilarda ushbu jarayonga bo'lgan qiziqishni uyg'otish kerak. Bunga erishish uchun topshiriqlar mazmuni o'quvchilarning yoshi va bilim darajasiga mos, ya'ni haddan ortiq oson yoki ortiqcha murakkab bo'lmasligi lozim. Chunki vazifani bajara olmaslik o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchning susayishiga olib keladi. Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan beriladigan yordam miqdori aniq belgilanishi va minimal bo'lishi kerak. Topshiriqlar darslikdagi mavzular bilan uzviy bog'liq bo'lishi, ularni yechish esa muntazamlik asosida yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, fazoviy tasavvurni shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladigan geometrik xarakterdagi topshiriqlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun mantiqiy masalalarning o'ziga xos yechish usullarini o'rganish kerak. Aynan shunda o'quvchilar bu turdagi murakkab, ammo qiziqarli muammolarni hal qilishga qodir bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar vositasidan foydalanish ayniqsa samaralidir.

Bugungi kunda yosh avlodni mantiqiy fikrlovchi, ijodiy salohiyatga ega shaxslar sifatida tarbiyalash zamon talabi sanaladi. Ayniqsa, matematika fanining darslari qiziqarli tashkil etilsa, bu o'quvchilarning fikrlash, mulohaza yuritish va hisoblash ko'nikmalarining jadallik bilan shakllanishiga xizmat qiladi. O'qitish samaradorligini oshirish va o'quvchilarning intellektual o'sishiga erishishda, berilayotgan topshiriqning mazmuniga alohida e'tibor qaratish kerak. Hozirgi amaliyotda ko'pincha misollar ustida ishlashga ko'proq vaqt ajratilib, murakkab, topqirlikka asoslangan vazifalar, masalan, rebuslar, boshqotirmalar, qiziqarli savollar, krossvordlar nazardan chetda qolmoqda. Natijada, kichik yoshdagi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va mulohaza yuritish qobiliyatlari yetarli darajada rivojlanmaydi.

O'quvchilar ko'pincha masalani yechishda undagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilmasdan, mexanik tarzda amal bajaradilar. Bu esa ularni ijodiy fikrlashdan, masalaning mohiyatiga yetib borishdan uzoqlashtiradi. Ko'pincha o'quvchilar darslikdagi namunaviy ketma-ketlikka ko'nikib qolgan bo'lishadi, bu esa ularni avtomatik fikrlashga va masala mazmuniga loqayd yondashishga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida, ayniqsa boshlang'ich ta'limda, har bir topshiriq ustida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va asosli xulosalar chiqarishga

yo'naltiruvchi nostandart masalalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Agar ushbu masalalar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda tanlansa, ularda ijodkorlik, mantiqiylik, mustaqillik, maqsadga intilish kabi fazilatlar shakllanadi.

Qiziqarli mantiqiy masalalar orqali to'g'ri yechimga erishish uchun topshiriqdagi har bir so'z, gapga e'tiborli yondashish, uni real hayotiy holat bilan bog'lash zarur. Aks holda, kichik bir tafsilotni e'tiborsiz qoldirish o'quvchini noto'g'ri yechimga olib kelishi mumkin. Agar e'tibor berib qaralsa, ya'ni masalada gap borayotgan fikr va predmet ustida diqqat bilan qaralsagina, ya'ni bola ko'z oldiga gavdalanitirilsa ijobiy natijaga erishiladi. Oddiy koringan masalalar yechimi hech qachon birdaniga chiqmaydi. U o'zida sirli jumboqni yashiradi. Buni yechish uchun o'quvchi ijodkor bo'lmog'i lozim. Mantiqiy topshiriqlar o'yinlar, didaktik materiallar bilan amaliy ishlar darsda nisbatan katta o'rin egallashi kerak. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy o'yinlar o'quvchi biluv faoliyatini oshirish vositasida muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yin o'quvchi ta'lim- tarbiya olishi, uning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim vosita bolib xizmat qiladi. Bolalarga har bir o'yinni o'rgatishda muayyan ta'limiy maqsadni nazarda tutish o'qituvchi diqqat markazida bo'lishi zarur. O'yin orqali o'quvchi o'tiladigan mavzu yuzasidan bilm oladi, konikma malakalarga erishadi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham shundadir. Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilarni hamjihatlikka, intizomlikka sezgilikka, topqirlikka, e'tiborli bolishga, qatilylikka undaydi. Didaktik o'yinlar o'quvchi faoligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'yinga kirishgan o'quvchidan o'quv topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bolishni talab etadi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. O'quvchi ijodkorligini oshirishda mantiqiy o'yinlar nihoyatda zarur. Mantiqiy o'yinlar o'quvchi tafakkuriga moljallangan bo'lib, o'quvchi biluv faoliyatining rivojlanishiga yordam beradi. Inson bilishning hisiy va mantiqiy bosqichi mavjud. Odamzotning hissiy bilishi uning sezgi, idrok, tasavurlarida oz ifodasini topadi. Insonning mantiqiy bilishi uning tushuncha, hukm, xulosalarida, o'z ifodasini topdi. O'quvchi mantiqiy o'yinlarda ishtirok etib, o'yin shartlari yuzsidan mushohada yuritib, ma'lum hukm va xulosalarni chiqaradi. Shunday o'yinlardan ba'zilarini keltirishimiz mumkin. Quyida keltiradigan „Sonni top“ mantiqiy o'yinini chorak boshida matematika fanidan o'tilganlarini takrorlash darslarida o'tkazish mumkin. O'yin umumsinf ishi tariqasida o'tkazilishi mumkin. O'quvchilarda quyidagi topshiriq aytiladi: „Uchta quticha ichida „bir xonali son“, „ikki xonali son“, „uch xonali son“ deb yozilgan: 1. Bir xonali son 2. Ikki xonali son 3. Bir xonali bo'lmagan son. Bu uchala yozuv notogri ekanligini bilgan holda har bir qutichada bunday kartochka joylashganligini toppish mumkinmi?“ Har bir o'quvchi mantiqan fikr yuritib, to'g'ri va tez bajargan o'quvchi doskaga chiqib, sinf o'quvchilari bilan umumsinf muhokamasida mantiq o'yinini izohlaydi. O'quvchi quyidagicha mushohada qilishi

mumkin: Uchinchi qutichadagi „ Bir xonali bolmagan son “ yozuv xato bolgani sababli 3- qutichada „ Bir xonali son “ yozilgan kartochka joylashgan . Bu oquvchining chiqargan dastlabki to'g'ri hukmi boladi. 2- qutichada „Ikki xonali son “ yozuv xato bo'lgani uchun unda yo bir xonali son yoki uch xonali son yozilgan kartochka joylashishi mumkin. Ammo , „bir xonali son “ yozilgan kartochka 3- qutichada joylashgan. Demak , 1-qutichada joylashgan boladi. Oyin g'olibi rag'batlantiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan matematika darslarida mantiqiy o'yinlarni tashkil qilish va uni o'tkazish borasida quyidagilarga e'tibor berishlari maqsadga muvofiq : -Dars maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda mantiqiy o'yinlarni tanlash. -Mantiqiy o'yinni shunday tashkil etish kerakki, unda barcha sinf o'quvchilari jalb qilingan bo'lsin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida keltirilgan materiallar o'zining qiziqarliligi, tuzilishi bilan bolalarga yaqindir. Boshqotirmalar, matematik mantiqiy masalalar o'quvchilarni shunday sharoitga soladiki o'quvchilar o'ylashga, fikr yuritishga majbur bo'ladilar. Dars jarayonida o'quvchilarda hosil bo'lgan ijobiy his-tuyg'ular ularga aqliy qobiliyatlarni shakllantirishda asosiy shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan sistemali ravishda olib borilgan ishning ijobiy natija berishi mantiqiy tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020 y
2. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. М.: "Знание", 1989 г. С. 75.
3. Nishonova ZT. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003y.
4. Matematika 2-sinf [Matn]: darslik L.O'rinboyeva [va boshq.]. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 192 b.
5. Matematika 2-sinf. Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / L. O'. O'rinboyeva [va boshq.]. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.-160 b.